VOL. 1 | ISSUE 1 | JANUARY 2026

UNISCIENCE

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL



UniScience
International scientific journal

QORAQALPOQ TILIDA RANG KOMPONENTLI FE'L FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR

Begniyazova Go'zal Allambergenovna
Qoraqalpoq davlat universiteti

Annotatsiya. *Mazkur tezis qoraqalpoq tilidagi rang komponentli fe'l frazeologik birliklarning struktura-semantik turlari va ularning guruhlarga bo'linishlari haqida gap bo'lgan. Ekki komponentli va uch komponentli fe'l frazeologik birliklar talqin etilgan.*

Kalit so'zalar*: rang, komponent, fe'l, frazeologik birliklar, guruh.*

Abstract. *This article discusses the structural-semantic types of phraseological units with a color component in the Karakalpak language. Verbs and their groups. Phraseological units are interpreted into two-component and three-component.*

Keywords*: color, component, verb, phraseological, units, group.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются структурно-семантические типы фразеологических единиц с цветовой составляющей в двухкомпонентные и каракалпакском языке. Фразеологические единицы интерпретируются как трехкомпонентные глаголы и их группы.*

Ключевые слова*:цвет, компонент, глагол, фразеологические единицы, группа.*

Kirish. Frazeologik birliklar tilning o'ziga xos, ma'naviy ham madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi eng muhum elementlaridan biri.

Ranglarning frazeologik birliklarda qo'llanilishi, ularning lingvistik va madaniy kontekstdagi ma'nolari hamda ma'nolarning frazeologik strukturalarda

qanday shakllanishi tilshinoslikda keng o'rganilgan mavzulardan biridir. Har bir millat ranglarni o'z madaniyati, urf-odatlari va tabiatiga mos ravishda turlicha talqin qiladi.

Ushbu ilmiy ishimizda rang komponentli fe'l frazeologik birliklarni komponentlari bo'yicha gruhlarga ajratdik.

Rang komponentli fe'l frazeologizmlarning asosiy komponenti fe'l so'z turkumi hisoblanadi. Ular ikki komponentli, uch komponentli va ko'p komponentli frazeologik birliklar.

Asosiy qism. Ular quyidagi guruhlarga bo'linadi:

1."Topish kelishigidagi ot+fe'l" shaklidagi frazeologizmlar.

Qoraqalpoq tilida kelishikdagi ot so'zlar ko'chma fe'l so'zlar bilan ma'no jihatdan ma'lum bir sintaktik aloqaga tushib, rang komponentli fe'l frazeologizmlarni tuzadi. Bunday birikmalar tarkibidagi ot so'zlar ko'chma fe'l so'zlardan ma'no jihatdan mustaqil bo'lib, doimo tobe komponent sifatida keladi. Ammo, ko'chma fe'l so'zlar ma'no jihatdan tobe bo'lgan tushum kelishigidagi ot so'zlarni o'ziga bo'ysundirib, doimo bo'ysundiruvchi komponent sifatida birikib keladi. Tushum kelishigidagi ot so'zlar bilan fe'l so'zlar juftlashish yo'li orqali bog'lanib, rang komponentli fe'l frazeologizmlarni tuzib keladi. Bunda dastlabki komponent bo'lib keladigan qaratqich kelishigidagi ot birda qo'shimchali, birda qo'shimchasiz shaklda qo'llaniladi. Masalan, yuzini oqartirish, yuzini qizartirish, ko'zini sarg'aytirish, qorasini botirish, qorasini ko'rsatmaslik va h.k. Misollar: *Baǵanaǵı qubladan kóringen qara bult ta kem-kemnen qarasın batırdı* (M.Dáribaev). Rang komponentli fe'l frazeologizmlar tarkibidagi tobe komponent sifatida qo'llaniladigan kelishikdagi ot so'zlar sintaktik vazifasiga ko'ra gapda ko'pincha to'g'ri to'ldiruvchi bo'lib keladi.

2."Borish kelishigidagi ot+fe'l" shaklidagi frazeologizmlar tarkibidagi fe'llar borish kelishigidagi ot so'zlarni talab etib, ular bilan ma'no va shakliy jihatdan bog'lanib, rang komponentli fe'l frazeologizmlarni tuzib keladi. Bularning

tarkibidagi ot so‘zlar birda tortilgan, birda tortilmagan bo‘lib qo‘llaniladi: Ko‘kka ko‘tarish, ko‘kka sovurish, ko‘kka uchish, ko‘kka uchirish va h.k.

3. "Sifat+fe’l" shaklidagi frazeologizmlar. Sifatlar ma’no jihatdan fe’l so‘zlar bilan juftlashsa birikib, rang komponentli fe’l frazeologizmlarni hosil qilib keladi. Frazeologizmlar tarkibida sifat so‘zlarning fe’l so‘zlar bilan birikib kelishi, fe’l so‘zlarning otlar bilan birikishiga qaraganda unumliroq uchraydi. Bunday frazeologizmlarning dastlabki komponenti asos va yasama sifatlardan, keyingi komponenti fe’l so‘zlardan bo‘ladi: qora bosish, qora kiyish, qora yopinish, qizil yugurish, qora yopish, qora yoqish va h.k. Misollar: *Onıń gúl-gúl jańgan júzlerine sál-pál qızıl juwırǵan* (Z.Ishmanova). *Siziń hámmege bolǵan haq peyilińizge, álemge tınıshlıq ornatıw jolındaǵı xızmetińizge qara jaǵıp, bizlerdi inandırmaqshı boldı* (G.Esemuratova).

4. "Ravish+fe’l." qoralay o‘chish Ravishlar boshqa so‘z turkumlaridan eng ko‘zga tashlanadigan asosiy xususiyatlaridan biri - ularning har doim boshqa ma’noli so‘zlar bilan hech qanday affikssiz (qo‘shimchasiz) o‘zlarining o‘rin tartibiga (lokalizatsiyasiga) ko‘ra juftlashish yo‘li bilan bog‘lanib kelishi. Ravishlarning ot so‘z bilan ham, fe’l so‘z bilan ham doimo juftlanib kelishi bu ularning grammatik tabiatiga bog‘liq bo‘ladi. – *Boldıgúl apa, men mına miywelerdi kelege keltiremen dep qaralay óshtim* (Á.Atajanov).

5. "Otlashgan sifat+fe’l" turidagi rang komponentli frazeologizmlar: qorasi botish, qorasi botmaslik, qorasi ko‘rinish, qorasi ko‘rinmaslik, qorasi cho‘kish, qorasini o‘chirish, qorasini ko‘rsatmaslik va h.k. Misollar: *Burıńǵı buzıq jolǵa qızlardı úgitlegen muǵallimniń qarası kórinbeydi* (S.Bahadırova). *-Ákéń: ekewi de bosaǵadan ishke qaray adım atlamasın, endigi jaǵında bul shańaraqqa qaray qádem qoyaman degen oydı qıyalına da keltirmesin, qarasın batırıp, kelgen jaǵına ketsin, dep atır* (A. Sultanov).

6."Juft sifat+fe’l" turidagi rang komponentli frazeologizmlar: oq-qorani tanish, oq-qorani ajratish, yer-ko‘kka sig‘maslik, yer-ko‘kka sig‘dirmaslik va h.k.

Misollar: *Bul jaǵdaydıń aq-qarasın ayırıp, ayıpkerlerdi endigi jaǵında jazalawǵa da kesh qalǵanın óz-ózine moyınladı* (M.Tawmuratov*). Úy iyesiniń sońǵı sózleriniń aq-qarasın ajıratıp alǵan bizler Maqsettiń bir shiyshe ishimligi menen qosa onıń úlken ıqlasın jayılǵan dasturqanında qaldırıp dalaǵa shıqtıq* (M.Tawmuratov).

Qoraqalpoq tilida uch komponentli frazeologizmlar ham uchraydi. Ularni quyidagi turlarga ajratib qarash mumkin:

1."Kelbetlik+ot+fe'l" turidagi frazeologizmlar: oq yem bo‘lish, oq taban etish, oq so‘qmoq etish, oq sut berish, ola ko‘z bo‘lish, qora boshi qangirish, qora qonini to‘kish, qora qon qusish, qora qonini oqizish, qora qon qaqshatish, qora qon quyilish, qora yer bo‘lish, qora yer etish, qora ko‘zi qorayish, qora kun tug‘ish, qora suv bo‘lish, qora tutun bo‘lish, qora tutuni chiqish, qora tashvish tushish, qora tashvish bosish, qora ter bo‘lish, qora qozon qaynash, qora tosh bosish, qizil tomoq bo‘lish, qizil qanot bo‘lish, qizil chakka bo‘lish, sariq tashvish bosish va h.k. Misollar: *Ótemurattan beter Genjebay muǵallim qara tútin bolıp qayttı* (M.Nızanov*). Mına xan túrkmenler ala kóz boldı. Eki el arasında ala kózlik tuwdırıp ádilsiz xan qaraqshılardıń jılawın kóterip otır* (K.Sultanov*). Meni baqsha jaqsı, baqsha jaqsı dep aldap-arbap balamnan ayırıp, qara qan qaqsatayın degen ekenseń túwe (*G.Esemuratova*). Buniń ushın gúresiw kerek, kerek bolsa qızıl kegirdek bolasań, tislesesең, ayqasasań!* (M.Tawmuratov*). Bizler ne qılamız? – dedi Oraqbayǵa qara uwayım túsip* (M.Nızanov). *Hár sabaq ótken sayın sol keselliktiń belgileri ózlerimizde payda bola baslaǵanday, qatra uwayım basadı* (M.Nızanov*). Men ana górsawatlarǵa usı ilimpazdıń atın ayttıra almay qara ter boldım-ǵo!* (M.Nızanov*). Qara suw bolıp terlep qalıppan, terlegennen soń shashlarım shor bolıp qatıp qalıptı* (T.Yusupov*). Ata-babańnıń qádemi tiymegen jat jurtlarda qara basıń qańǵırıp, neǵıp júrseń?! Odessa sensiz qarań qala ma?* (M.Nızanov*).*

2."Ot+sifat+fe'l" shaklidagi frazeologizmlar: Uch komponentli frazeologizmlarning tarkibidagi sifatlar ma'no jihatdan asos va yasama shaklda ot va fe'l so‘zlar bilan bog‘lanib keladi. Bunday tuzilishdagi frazeologizmlarning

tarkibidagi otlar kelishik, egalik qo‘shimchalari bilan, va oxirgi fe’l komponenti o‘tgan, hozirgi va kelasi zamon shakllarida qo‘llaniladi. Ikkinchi komponent vazifasidagi sifat so‘zlar ma’no jihatdan fe’l so‘zlar bilan juftlashish orqali bog‘lanib, rang bildiruvchi fe’l frazeologizmlarni hosil qilib keladi. Sifat so‘zlarning frazeologizmlarning bir komponenti sifatida qo‘llanilishi, ularning ma’nolarining ta’sirchanligini oshirishga sabab bo‘lgan. Masalan, *mańlayı qara bolıw, awzı ala bolıw, baxtı qara bolıw, kewili qara bolıw, kewili aq bolıw, júzine qara jaǵıw, izine qara eriw, izine qara ermew, beti burıshtay qızarıw* h.k. *Sonda da birden qarsılıq kórsete almay, beti burıshtay qızarıp azmaz otırdı da, ishki qarsılıqların jeńip janlandı* (T.Qayıpbergenov).

3."Borish kelishigidagi ot+sifat+fe’l" tarzidagi uch komponentli rang bildiruvchi frazeologizmlar. Boshqa kelishik qo‘shimchalari singari borish kelishigining qo‘shimchalari ham atov yoki atov vazifasida qo‘llaniladigan so‘zlar bilan fe’l so‘zlarni bir-biriga bog‘lab keladi. Hozirgi qoraqalpoq tilida borish kelishigining morfologik ko‘rsatkichlari -g‘a-ge, -qa-ke, -na-ne bo‘lib, ular orqali atov yoki atovlik vazifasida qo‘llaniladigan so‘zlar fe’l so‘zlar bilan ma’no va shakliy jihatdan birikib, boshqaruv yo‘li bilan bog‘langan rang bildiruvchi komponentli fe’l frazeologizmlarni tuzib keladi. *basına qara jamılıw, mańlayına qara tigiw, mańlayına qara jaǵılıw* hám t.b.

Biz bu tadqiqot ishimizda ikki va uch komponentli rang komponentli frazeologik birliklarga tahlil qildik. Ular komponentlarining soni jihatidan bir-biridan farq qiladi. Komponentlarining doimiy o‘rni saqlangan. Saqlanmagan holatda frazeologik birlik talablariga javob bera olmaydi. Ma’nosi o‘zgarib ketadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Aynazarova G.B.** Qaraqalpaq tilinde teńles eki komponentli frazeologizmler : monografiya. — Nókis : Qaraqalpaqstan, 2020. — B. 88.

2. **Бердимуратов Е.** Әдебий тилдиң функционаллық стильлериниң раўажланыўы менен қарақалпақ лексикасының раўажланыўы. — Нөкис : Қарақалпақстан, 1973. — Б. 312.

3. **Бердимуратов Е.** Ҳәзирги қарақалпақ тили. Лексикология. — Нөкис : Билим, 1994. — Б. 186.

4. **Бекбергенов А.** Қарақалпақ тилиниң стилистикасы. — Нөкис : Қарақалпақстан, 1990. — Б. 88.

5. **Болғанбайұлы Ә., Қалиұлы Ф.** Қазіргі қазақ тілінің лексикологиясы мен фразеологиясы. — Алматы : Санат, 1997. — Б. 186.

6. **Виноградов В.В.** Об основных типах фразеологических единиц в русском языке. — М. : Наука, 1967.

UniScience
International scientific journal